



## TEXNOLOGIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

**Mamajonova Guluzro**

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti oqituvchisi

**Abdusalomova Sarvinoz Nodirbek qizi  
To'ychiyeva Gulzoda Sanjarbek qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8133378>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 30-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-July 2023 yil

Nashr qilindi: 11-July 2023 yil

### KEY WORDS

*texnologiya, mehnat an'analari, ijtimoiy pedagogik sifatlar, hunarmandchilik, chizmachilik, mehnat faoliyati*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinfda texnologiya talimidan amaliy ishlar, texnologiya talimidan nazariy ishlar, texnologiya an'analari turlari haqida ma'lumot beriladi.*

Ma'lumki, tasavvuf ilmida komil insonni ruhan shakllantirish, kamolotga yetkazish nazariyasi bosh masala hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra tasavvufdagi komil inson yoki «al-inson al-komil» tushunchasi ilohiylik va insoniylik tajassumining mukammal va oliy darajasi, odamlarning butunlikda, azim uyg'unlikda ko'rish orzu-xayollari, kamolot mash'ali bo'lish barobarida aniq shaxslar, insonlar rutbasini tan olish va qonunlashtirish hamdir. Chunki komil inson barcha ilmlardan, zohiriy va botiniy donishdan bexabar, qalbida g'ayb asrori jo'sh urib turgan zot deb bilingan. Mustaqillik barcha xalqlarning rivojlanishi uchun sharoit tug'dirib beradi. Har bir xalqning odat va marosimlarida xalq hayotini zamonaviy turmushiga uzluksiz singgan chuqur xalqchil va ilg'or elementlar mavjuddir. Xalqda mehnatsevarlikni shakllantirish uchun o'sib kelayotgan yosh avlod atrofida mustahkam va turg'un mehnat muhitini hosil qilish zarur. Shuning uchun o'zini oqlagan ko'p asrlik mehnat an'alarini o'rganish va targ'ibod qilish kerak.

### METODOLOGIYA

Mehnat an'alarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi, chunki u kasb-hunar tanlashda ilmiy asoslangan holda foydalanish uchun zamin yaratadi. Mehnat an'analari insonlarni mehnat malakalari va mehnat jarayonini ko'p marta qaytarish natijasida shakllangan va odatga aylangan insonlarning o'ziga xos axloqiy, psixologik sifatlar yig'indisidir. Ular jamiyat yoki jamoa mavjudligining zaruriy sharoitlarini ifodalaydi, meros bo'lib o'tish xarakteriga ega, katta avlodlar yetishgan tajribani saqlashga xizmat qiladi. Mehnat an'alariga ommaviylik xosdir, ular hayotiy bo'lib, xalq ommasi kundalik ijodida mavjud. Ularda his – tuyg'ulik tomoni ham mavjud: ular sinfiy kurash, mehnat ishtiyoqining yorqin romantikasi bilan ilhomlangan. Mehnat an'alarida mehnatkash sinfga xos bo'lgan, mehnatkash insonlarga, ishchi, hunarmand kasbiga, mehnat yaratgan qadriyatlarga hurmat, ijod, bunyodkorlikka ehtiyoj, o'zaro yordam, musobaqa va hokazolar ifodalangan.

O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'zining iqtisodiy, geografik va ijtimoiy hayoti xususiyatlari bilan bog'langan mehnat tarbiyasining mustahkam an'analarini ijod qilish bilan bir vaqtda avloddan – avlodga mehnat mahoratlarini shakllantirish yo'llari va vositalari haqidagi bilimni uzatib borgan.

An'analar juda qadim zamonlarda inson jamiyati bilan birga paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida insonlar urug'dosh jamoalardagi munosabatlari ularning birgalikdagi mehnati va hayoti, ularning tabiat kuchlari bilan umumiy kurashi ma'lum normalar va muomala qoidalari bilan chegaralangan. Bunda yozilmagan norma va qoidalar tug'ilgan bo'lib, ular ko'p marta qaytarilib, avloddan avlodga o'tgan va an'analarga aylangan. Ba'zi an'analar hosil bo'ladi, boshqalari yo'qoladi. Qadimgi an'analar yangi turmush sharoitlariga moslashib o'zgarib boradi.

### **MUHOKAMA**

Hozirgi yangi turmush sharoitida asrlar davomida o'z kuchini yo'qotmagan ilg'or mehnat an'alaridan kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda foydalanilmoqda. Bunga ko'ra o'qituvchidan bir qator quyidagi ijtimoiy-pedagogik sifatlar talab etiladi:

1. Ochiq ko'ngillilik, xushmuomalalik, mehribonlik, bola qanday bo'lsa, shundayligicha seva olish.
2. Bolaning his-tuyg'ularini qadrlash, ruhiy holatini, ichki dunyosini tushuna bilish.
3. Bolalarni ruhlantirish, qiziqtirish, o'zini tuta bilish, kechirimli bo'lish, shirinsuxanlik.
4. Ezgu sifatleri bilan namuna bo'la olish, oliyjanoblighi, odamiylighi bilan o'quvchilar idealiga aylanish.
5. So'z va ish birlighi bilan bolalar talabiga javob bera olish, yoshlarda shakllantirmoqchi bo'lgan ma'naviy sifatlerning egasi bo'lish.
6. Muomala – munosabatda bola xohish-istagi, qiziqishi, yosh xususiyati, ruhiyati bilan hisoblashish, bolalarning har birini alohida va hammasini birgalikda tushunish.
7. Bolalardan har qanday yordamni ayamaslik, o'quvchilarning oilaviy sharoiti, ijtimoiy ahvoli bilan tanishish;
8. O'quvchilarni diqqat bilan tinglay olish, yutug'idan quvonish, hayratlanish, quvonchiga sheriklik.
9. Toza va ozoda kiyinish, jozibadorlik, sergaklik, topqirlik, kamtarlik, pokizalik.
10. Adolatlilik, quvnoqlik, intizomlilik va axloqlilik kabi fazilatlar bolalar muhabbatiga sazovor bo'lishning zarur omillaridir.

Xalqimiz azaldan mehnatni ulug'lagan. Mehnatsevarlik kishilarning eng yaxshi fazilatlaridan biri deb hisoblangan. Kishilar halol mehnat qilib, shuning evaziga topgan daromadlari hisobiga yashamoqlari va bolalarini ta'minlamoqlari lozim. «Peshona teri bilan topgan bir qora chaqa o'zgalarning ehson etgan xazinalaridan yaxshiroqdur» - deb yozgan edi Alisher Navoiy.

Bir diram olmoq chekibon dastranj,

Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

Shuning uchun ham, ulug' ajdodlarimiz yoshlarni kasb-hunarni egallamoqqa chaqirganlar. «Hunar – hunardan unar», «Hunari yo'q kishining mazasi yo'q ishining», «Yigit kishiga yetmish hunar oz» kabi ezgu o'gitlar xalq o'rtasida keng yoyilgan.

### **NATIJA**

Shunday qilib, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarning mehnat ta'lim-tarbiyasida kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- a) mehnatkashlar o'z mehnatiga munosabati an'analari – o'zining kasbiga, xalqiga, topshirilgan vazifasiga davlat ehtiyojini o'ylab yondashish; jamoa ehtiyojini o'z ehtiyojidan baland qo'yish;
- b) o'quvchilar bir – biri bilan munosabatlarda, - do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro yordam va mehnatda to'g'ri munosabatda yondashish;
- v) yangi mehnat marosimlari, an'analari – kasbiy bayramlarni tashkil etish;
- g) o'zbek xalq ijodi namunalaridan dars va darsdan tashqari vaqtlarda unumli foydalanish.

An'anaviy hunarmandchilikning tiklanishi, ularning aholi orasidagi ommaviyligini oshirish, ularga bolalar e'tiborini kuchaytirishga sharoit tug'diradi. Shu bilan bir qatorda ba'zi darsliklar va maktab dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab kursidagi mehnat tarbiyasi va uning o'qitilishi, o'zining hayot yo'lini va kasb-hunar tanlash haqida o'ylayotgan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari qiziqishini qanoatlantirmaydi. Bizningcha, maktablarda, bog'cha-maktablarda bolalar oromgohlarida, mahallalarda xalq ijodiy to'garaklari ochishga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya fani ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida umumiy ta'lim fanlari va maxsus fanlarda o'qitish nazarda tutilgan. Maxsus fanlarga umumtexnik, texnika va pedagogika fanlari kiradi. Umumtexnika fanlariga texnik mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika va elektronika asoslari kirib, texnik fanlar bo'yicha bilim egallashga asos bo'ladi.

Chizmachilik va chizma geometriya, materialshunoslik, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning ekonomikasi asoslari, elektromantaj ishlari va elektr bilan ishlaydigan maishiy asbob (pribor)lar va boshqa texnik fanlar jumlasiga kiradi.

O'qituvchining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologiya, pedagogika, texnologiya va kasb ta'limi metodikasi, chizmachilik va rasm o'qitish metodikasi, maktab gigiyenasi kabi fanlarni o'rganishda amalga oshadi.

#### **XULOSA**

Shunday qilib, texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu fanlar boshqa fanlarni pedagogika, psixologiya va hokazolarni takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi.

"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" kursi o'rganish, umumiy ta'lim maktabidagi texnologiya fanining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy prinsiplarini va uning mazmunini anglab olinishi, maktab ustaxonalarida ta'lim tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasi sifatida o'rganilishi lozim.

"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" alohida roli shuki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun obyektiv qulay sharoit vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga yana shu sharoitdan qanday qilib to'la foydalanishni ko'rsatish modulning vazifalaridan biridir.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmog'i sifatida o'z obyektlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega.

Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlari; o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning bilish faoliyati, o'qitish natijalari va boshqalar o'rganish obyekti hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdurahmonov Q.X. "Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi". Darslik.-T.: "Fan va texnologiya", 2012. 152 –b.
2. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T. "Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari" Darslik. –T.: TDIU, 2011. – 692 b.
3. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T. "Aholini ish bilan bandligi". o'quv qo'llanma. – T. 2011. -384 b.
4. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M.

